**Dastlabki ma’lumotlar**

# 2024- yilning yanvar–dekabr oylarida Toshkent viloyatining qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi

Dastlabki maʻlumotlarga koʻra, 2024- yilning yanvar–dekabr oylarida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 44 379,0 mlrd. soʻmni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 101,4 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar – 42 108,8 mlrd. soʻmni (101,6 %), oʻrmon xoʻjaligi – 1 749,6 mlrd. soʻmni (104,0 %), baliqchilik xoʻjaligi – 520,6 mlrd. soʻmni (77,5 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi tarkibida Toshkent viloyatining ulushi 9,5 % ni tashkil etdi.



**44 379,0** — **Toshkent viloyati boʻyicha qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. soʻm**

01 — 42 108,8 — **Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar**

02 — 1 749,6 — **Oʻrmon xoʻjaligi**

03 — 520,6 — **Baliqchilik xoʻjaligi**

# Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘sish sur’ati, % da




## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari



2024- yilning yanvar–dekabr yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 94,9 % i dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 3,9 % i – o‘rmon xo‘jaligi, 1,2 % i – baliqchilik xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.

## Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi

mlrd. so‘m




2024- yilning yanvar–dekabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Bekobod (4 869,9 mlrd. so‘m), Yangiyo‘l (3 894,2 mlrd. so‘m) va Parkent (3 412,0 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Yangiyo‘l (69,1 mlrd. so‘m), Ohangaron (72,7 mlrd. so‘m) va Nurafshon (76,4 mlrd. so‘m) shaharlarini keltirib o‘tish mumkin.

Yuqori o‘sish sur’atlari Olmaliql shahar (116,0 %), Angren shahar (106,5 %), Qibray (103,5 %) va Quyi Chirchiq (104,4 %) tumanlarida kuzatildi. Yangiyo‘l shahar (28,9 %), Chirchiq shahar (59,9 %) va Ohangaron (94,5 %) tumanida esa aksincha o‘sish sur’atlari pastligi kuzatildi.

## Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining o‘sish sur’ati




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

2024- yilning yanvar–dekabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 41 371,6 mlrd. so‘mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 101,6 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari hajmi 19 107,2 mlrd. so‘mni (99,8 %) hamda chorvachilik mahsulotlari hajmi 22 264,4 mlrd. so‘mni (103,1 %) tashkil qildi.

## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi

**46,2 %**
Dehqonchilik mahsulotlari



**53,8 %**
Chorvachilik mahsulotlari

## Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)




## Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi




Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 65,1 % – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 16,4 % – fermer xo'jaliklariga, 18,5 % – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

## Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)




2024- yilning yanvar–dekabr oylari yakuniga ko‘ra yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Bo‘ka tumanida (30,5 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Bekobod shahrida (99,7 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Quyi Chirchiq tumanida (42,5 %) qayd etildi.



# Dehqonchilik mahsulotlari

2024- yilning yanvar–dekabr oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 19 107,2 mlrd. so'mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 99,8 % ni tashkil etdi. yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 46,2 % ni tashkil qildi.

## Donli ekinlar

**Hajmi, ming tonna**




**O'tgan yilga nisbatan**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**






2024– yilning yanvar–dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 631,8 ming tonna don va dukkakli don (2023- yilning mos davriga nisbatan 3,0 % ga kam) ishlab chiqarildi. Don va dukkakli don ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, don ishlab chiqarish umumiy hajmidan 48,5 % i fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



## Toshkent viloyati bo‘yicha donli ekinlar yetishtirish hajmi, tonna



# Kartoshka

**Hajmi, ming tonna**




**O‘tgan yilga nisbatan**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024– yilning yanvar–dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 387,3 ming tonna kartoshka (2023- yilning mos davriga nisbatan 0,2 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Kartoshka ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, kartoshka ishlab chiqarish umumiy hajmidan 76,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



# Toshkent viloyati bo‘yicha kartoshka yetishtirish hajmi, tonna



# Sabzavotlar

**Hajmi, ming tonna**




**O‘tgan yilga nisbatan**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning yanvar– dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 1 195,8 ming tonna sabzavotlar (2023- yilning mos davriga nisbatan 3,5 % ga ko‘p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 73,1 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



# Toshkent viloyati bo‘yicha sabzavotlar yetishtirish, tonna



# Poliz ekinlari

**Hajmi, ming tonna**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024– yilning yanvar–dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 75,4 ming tonna poliz (2023- yilning mos davriga nisbatan 7,8 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Poliz ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, poliz ishlab chiqarish umumiy hajmidan 56,6 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Toshkent viloyati bo‘yicha poliz ekinlari yetishtirish hajmi, tonna



# Meva va rezavorlar

Hajmi, ming tonna




O‘tgan yilga nisbatan




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi






2024– yilning yanvar– dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 131,8 ming tonna meva va rezavorlar (2023- yilning mos davriga nisbatan 3,5 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Meva va rezavorlar ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, meva va rezavorlar ishlab chiqarish umumiy hajmidan 66,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Toshkent viloyati bo‘yicha meva va rezavorlar yetishtirish hajmi, tonna



# Uzum

**Hajmi, ming tonna**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024– yilning yanvar–dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 84,5 ming tonna uzum (2023- yilning mos davriga nisbatan 4,4 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Uzum ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, uzum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 69,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



# Toshkent viloyati bo‘yicha uzum yetishtirish hajmi, tonna





# Chorvachilik mahsulotlari

2024- yilning yanvar–dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 22 264,4 mlrd. so‘mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 103,1 % ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 53,8 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste‘mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2024- yilning yanvar–dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 312,3 ming tonna go‘sht (2023- yilning mos davriga nisbatan 1,8 % ga ko‘p), 1 080,6 ming tonna sut (5,0 % ga ko‘p), 1 608,1 mln. dona tuxum (3,1 % ga ko‘p) yetishtirildi va 19 141,1 tonna baliq (22,9 % ga kam) ovlandi.

# <u>Go‘sht *(tirik vaznda)*</u>

**Hajmi, ming tonna**




**O‘tgan yilga nisbatan**




**Yetishtirilganmahsulotning xo‘jalik toifalaribo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024- yilning yanvar–dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 312,3 ming tonna go‘sht (2023- yilning mos davriga nisbatan 1,8 % ga ko‘p) yetishtirildi. Go‘sht yetishtirish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, go‘sht yetishtirish umumiy hajmidan 71,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini qayd etish zarur.



## Toshkent viloyati bo‘yicha go‘sht *(tirik vaznda)* yetishtirish, tonna



# Sut












2024- yilning yanvar– dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 1 080,6 ming tonna sut (2023- yilning mos davriga nisbatan 5,0 % ga ko‘p) yetishtirildi. Sut yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmidan 90,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Toshkent viloyati bo‘yicha sut yetishtirish, tonna



# Tuxum

**Hajmi, mln.dona**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalaribo‘yicha taqsimlanishi**




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning yanvar–dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 1 608,1 mln. dona tuxum (2023- yilning mos davriga nisbatan 3,1 % ga ko‘p) yetishtirildi. Tuxum yetishtirish ko‘rsatkichlari xo‘jalik toifalari bo‘yich tahlil etilganda, tuxum yetishtirish umumiy 62,6% i dehqon (shaxsiyyordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.



## Toshkent viloyati bo‘yicha tuxum yetishtirish, ming dona



# Baliq












2024- yilning yanvar–dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 19 141,1 tonna (2023- yilning mos davriga nisbatan 22,9% ga kam) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 88,2% i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelganini ta’kidlash lozim.



## Toshkent viloyati bo‘yicha ovlangan baliqlar, tonna





# Chorva mollari va parrandalar bosh soni, ming bosh

| | 01 | 02 | 03 | 04 | 05 |
|---|---|---|---|---|---|
| | Yirik shoxli qoramollar | shundan, sigirlar | Qo‘y va echkilar | Otlar | Parrandalar |
| |  |  |  |  |  |
| | 1 020,0 | 431,9 | 1 108,6 | 57,0 | 17 661 |
| | 101,3 % | 100,9 % | 100,7 % | 100,4 % | 105,0 % |

2025– yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 8,7 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga, 85,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 5,8 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumyiy sonidan 28,9 % i fermer xo‘jaliklariga, 63,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 7,7 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi, shunga mos ravishda otlarning umumyiy sonidan 18,9 % i fermer xo‘jaliklariga, 74,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 6,6 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi, shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 1,3 % i fermer xo‘jaliklariga, 53,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 45,6 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

2025- yilning 1– yanvar holatiga koʻra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 020,0 mingtaga yetdi.

2024- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xoʻjaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 13 mingtaga (1,3 %) koʻpaydi.

## Yirik shoxli qoramollar

**Soni, ming bosh**




**Oʻtgan yilga nisbatan**




**Bosh sonining xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi**




**Fermer xoʻjaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari**

**Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2025- yilning 1– yanvar holatiga koʻra, yirik shoxli qoramollar bosh soni toʻgʻrisidagi maʼlumotlar xoʻjalik toifalari boʻyicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 85,3% i dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklariga toʻgʻri kelishi kuzatildi.



## Toshkent viloyati bo‘yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni, ming bosh



2025- yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 431,9 mingtaga yetdi.

2024- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni 3,8 mingtaga (0,9 %) ko‘paydi.

## Sigirlar

**Soni, ming bosh**




**O‘tgan yilga nisbatan**




**Bosh soning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2025- yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 89,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



# Toshkent viloyati bo‘yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh



2025- yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 1 089 mingtaga yetdi.

2024- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni 7 mingtaga (0,7 %) ko‘paydi.

## Qo‘y va echkilar

**Soni, ming bosh**




**O‘tgan yilga nisbatan**




**Bosh soning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2025- yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 63,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



# Toshkent viloyati bo‘yicha qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh



2025- yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 57 009 taga yetdi.

2024- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni 238 taga (0,4 %) ko‘paydi.

## Otlar

**Soni, bosh**




**O‘tgan yilga nisbatan**




**Bosh soninig xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2025- yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami otlarning 76,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Toshkent viloyati bo‘yicha otlarning umumiy bosh soni,bosh



2025- yilning 1– yanvar holatiga ko'ra, parrandalarning umumiy bosh soni 17 661,0 mingtaga yetdi.

2024- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni 844 mingtaga (5,0 %) ko'paydi.

## Parrandalar












2025- yilning 1– yanvar holatiga ko'ra, parrandalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 53,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



# Toshkent viloyati bo‘yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh




Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistikasi bo‘limi
- 71-202-86-69
- 71-203-45-00 (46-10)